



ICHKI KENGFE`LLIK

¹Rahmonova
Oyshaxon Oribovna
²Mamajonova
Malohat Tojialiyevna

¹QDPI Psixologiya kafedrası o`qituvchisi
ORCID raqam 0009 0003 6472 3160 QDPI
²Pedagogika psixologiya yo`nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbi maqolada bugungi globallashuv jarayonida insonlar o`rtasida kamayib borayotgan ichki kengfe`llik xususiyati, uni shaxslararo munosabatdagi o`rni, inson ruhiyatiga ta`siri haqida so`z boradi.

Tayanch so`zlar: Ichki kengfe`llik, zavq hislari, bolalik erkinligiga qaytish, bolajon`men`ni tinglash.

Ushbu mavzu haqida so`z yuritishga Adem Guneshning ``Jazosiz tarbiya`` kitobi sabab bo`ldi. Ko`p qavatli uyning hovlisida 2 yoshli o`g`lim bilan sayr qilar ekanman, bolamning serharakatligi, tinimsiz o`zini u yerdan bu yerga urib dumalab tushishi atrofdagilarni tinimsiz bezovta qilar, hatto buni kuzatgan yuqori qavatdagi qo`shnini qon bosimi oshib ketayotganini ta`kidlardi. Bu jarayon menga aksincha, hotirjam va zavq bag`ishlashi ularni qiziqtirib qo`yadi. Bolalikdan otamning farzandlarga nisbatan fe`li keng, bizni har bir rivojlanish, intilish va suhbatimizni maroq bilan tinglardi. 19 yoshimga qadar toki otam qazo qilguncha hayotdan undan boshqa do`stim bo`lmadi. Sababi, dadamdan boshqa munosib do`stga ehtiyoj sezmadim. Insonning bolalik davridan erkin qo`yilishi, unga shaxs sifatida to`g`ri munosabatda bo`lish, erkinliklarini cheklamaslik, uni doimo eshitish ichki hotirjamlik kengfe`llik xususiyatlarini shakllanishiga sabab bo`ladi.

``Farzandlarimizni, yaqinlarimizni duo qilganimizda baxt-saodat tilaymizu; qanoat tilashni unutamiz.

Inson jismoniy jihatdan baquvvatligiga mag`rurlanib yuraveradi, aslida esa u g`oyat ojizdir. Toqati yetmaydigan yumushlari ko`p. Sabrsizligi tufayli yo`l qo`yayotgan gunohlari undanda ko`proq.

Hayoti davomida kishining boshi ustidan quyosh charaqlab turishi barobarinda turli hil tashvish bulutlari ham suzib o`tadi. Kengli-tanglik ham, to`qlik ochlik ham, g`alaba -mag`lubiyat ham, shodlik musibat ham. Umri faqat shodligu g`alaba bilan o`tgan kimsani tarix bilmaydi``. Muhimi inson zoti har qanday vaziyat va sinovlarda o`zini vazmin, sokin va hotirjam tutishi barcha narsani boricha qabul qilishi uning ko`ngli va fe`li kengayib borishiga sabab bo`ladi.

Taniqli psixolog Luiza Hey ham o`z asarida inson avvalo, o`zligini ichki bola ``men`` ni bilan doimiy suhbatda bo`lishi uning xoxishlarini bajarish, har tong oynaga

qarab`Hoy kichkintoy, biz sen bilan hali buyuk ishlar qilamiz, sen barchasini uddalaysan` degan iboralarni takrorlab turishi insonni qalb hotirjamligi va fe`lining keng bo`lishiga ham sabab bo`luvchi omil sifatida ko`rsatilgan.

Ota ona farzandini choynakdan qaynoq choydan asragani kabi yomon hulqlardan ixota qilishi shart.

Chindan ham, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrimizda insonlardagi stress, agressiv harakterlarning rivojlanib borishi ulardagi bolalikdagi qondirilmagan ehtiyojlar, qo`yilgan ta`qiqlar va ayni damda o`z ruhiyatlariga o`zlari tomonidan belgilangan cheklovlar oqibatidir.

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolardan biri bu deviant xulq-atvorli bolalar sonining ko`payishi. Kasbiy muhitda "deviant xulqli bolalar" kontseptsiyasining muhim asoslari to`g`risida turli xil qarashlarni topish mumkin.

Psixologik maktablar vakillari deviant xulq-atvorning paydo bo`lishi uchun quyidagi omillarni ajratib ko`rsatadilar:

psixoanaliz - deviatsiyaning ongsiz motivlari, deviant shaxsining psixologik xususiyatlari (Z.Freyd);

- neofreydizm - ona bilan emotsional aloqaning etishmasligi (K. Xorni, D.Boulbi);
- hayotning birinchi yillarida xavfsizlik hissi yo`qligi (E. Erikson);

- oila tarkibi va tarbiya turi (A.Adler);

- bixeviorizm - sotsializatsiya jarayonini buzish, jazoni suiste'mol qilish, bolalarga nisbatan shafqatsizlik (A.Bandura, A.Bass);

- psixodidaktik yo`nalish - bolaning og`ishdagi rivojlanishidagi omadsizliklarning o`rni (Yu.Kaufman) va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, qiyin hayotiy sharoitlar, jarohatli omillar va inson psixikasini yo`q qiladigan boshqa salbiy xususiyat beruvchi omillar aksentsiyalarning namoyon bo`lishi kuchaytiradi va ularning takrorlanish chastotasi oshadi. Bu turli xil nevrotik va jazavaga tushish reaksiyalarga olib kelishi mumkin.

Jamiyatning og`riqli nuqtalariga barham berishda uning bo`lagi sanalgan har bir shaxs , avvalo o`z ichki dunyosini taftish qilishi , ruhiy hotirjamlikka erishish,ichki kengfe`llikni his qilishi uchun o`ziga biroz erkinlik berishi, doimiy bir hil hayot tarzidan qochish , qalbiga sokinlik baxsh etishi turli stress va nevrotik kasalliklarni oldo ilinishiga sabab bo`ladi. Bir insonning o`zgarishi avvalo uning o`zi oilasi va jamiyatning yaxshilanishi uchun bir qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.A.Abduqahhorova. O`smirlarda deviant xulq-atvorni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik xizmatning o`rni.Diss.Toshkent-2021. – B.151

2. Богомолова С.Н. Психологическая теория преступности Айзенка / С.Н. Богомолова // Юридическая психология / сост. и общ. редак-ция Т.Н. Курбатовой. – СПб.: Питер, 2001. – С. 32– 45.

3. Медведева Е.С. Сущность и существование девиантного поведения. — Красноярск.: ГОУ ВШ,2007. – С.58

4. Моложавенко А.В. Особенности формирования аддиктивного поведения у старшеклассников//Журнал практического психолога. 1999. -№ 12.- С. 109-121.

5. Горьковая И.А. Влияние семьи на формирование делинквентности у подростков // Психологический журнал. Т. 15. - 1994. - № 2. - С. 57-65.
Tohir Malik -Odamiylik mulki-Toshkent 2015